

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

---

## FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

---

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

---

### Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

---

### Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOVA K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

---

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.  
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60  
Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

---

Bosishga ruxsat etildi:  
Qog'oz bichimi: - 60x84 1/8  
Bosma tabog'i:  
Ofset bosma: Ofset qog'ozi.  
Adadi: 10 nusxa  
Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

---

Farg'ona,  
2022.

**A.Mamadaliyev, X.Kushiyev, Z.Abdullayeva**Sirdaryo viloyati sharoitida og'ir metallardan *Cannabis Sativa L.* o'simliklarining himoya qilishda fenolli tizimi ..... 358**A.Turdaliyev, K.Asqarov, M.Aktamov**

Sug'oriladigan tuproqlarning biogeokimyoviy muammolari ..... 363

ILMIY AXBOROT

**F.Madraximova**

Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda hamkorlik texnologiyalari ..... 369

**M.Nasirov**

Badiiy matnning assotsiativ maydon tahlili..... 372

**B.Muxtoraliev**

Anvar Obidjon ijodi adabiyotshunoslik ko'zglasida ..... 375

**X.Mamatismoilova**

Tarixiy etnolisoniy jarayonlar va o'zbek xalqining milliy tili ..... 379

**K.Topvoldiyev**

Lingvokulturologiyada "sharq" konseptining masalalari ..... 384

**Z.Akbarova, D.Rustamova**

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida leksik sinonimlarni faollashtirish bosqichlari ..... 388

**Song Ho-Lim**

Chig'atoy turkiyning adabiy-uslubiy xususiyatlari..... 391

**O.Uzaqova**

Ingliz va o'zbek tillarida kompyuter terminografiyasining lingvistik xususiyatlari ..... 396

**F.Anvarova**

Ilk o'rganuvchilarda ingliz tili o'qitishning pedagogik usullari ..... 400

**Sh.Iskandarova, S.Sotvoldiyeva**

Mavhum otlar va ularning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi xususida ..... 404

**M.Yusupova**

Evfemizmlar tasniflarining tahlili ..... 407

**F.Nurdinova**

Tarjimada so'z tanlash mahorati xususida..... 409

**Sh.Sherg'oziyev**

«Boburnoma» matnidagi shaxslar tasvirida saj'i matavoziyning o'rni va ularning inglizcha tarjimalarda aks etishi..... 413

**Z.Pazilova**

O'zbek va nemis tillarida dafn marosimi bilan bog'liq leksik birliklar tahliliga doir ..... 416

**Z.Axmedova**

Lingvokulturologiya nazaridagi rimlar ..... 420

**Sh.Dushatova**

Tabu so'zlar o'rganilishi va kelib chiqish tahlili..... 425

**BIBLIOGRAFIYA** ..... 428

**YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA HAMKORLIK TEXNOLOGIYALARI  
ТЕХНОЛОГИИ СОТРУДНИЧЕСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОСТИ  
МОЛОДЕЖИ**

**TECHNOLOGIES OF COOPERATION IN THE FORMATION OF YOUTH SPIRITUALITY**

**Madraximova Feruza G'ulomjonovna**

**Madraximova Feruza G'ulomjonovna**

–

Farg'ona davlat universiteti erkin tadqiqotchi

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada ta'lim-tarbiyaning ma'naviy-axloqiy mazmunini kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi yoritilgan. Ayniqsa, jamiyatimizda ma'naviyat va ma'rifat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berilib, milliy tarbiya sohasida sog'lom fikrli, ma'naviy barkamol inson bo'lgan yoshlarga ushbu tushunchalarning mazmuni, mohiyati, ularning hayotdagi asl maqsadini anglatish borasida jiddiy ishlash zaririyati misollarda tahlilga tortilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье освещены вопросы повышения уровня государственной политики по дальнейшему развитию работы по укреплению духовно-нравственного содержания образования, воспитания молодежи в духе уважения к национальным ценностям, патриотизма на основе гуманизма и высоких духовных идей, укрепления иммунитета против чуждых идей и идеологий, восстановления огромного, бесценного духовного и культурного наследия, созданного нашими предками на протяжении многих веков. В частности, вопросам духовности и просвещения в нашем обществе придается первостепенное значение, на примерах анализируется необходимость эффективной работы в сфере национального воспитания молодежи, являющейся здоровомыслящей, духовно развитой личностью, по осмыслению содержания, сущности этих понятий, их истинной цели в жизни.*

**Abstrakt**

*This article highlights the issues of raising the level of state policy for the further development of work to strengthen the spiritual and moral content of education, educating young people in the spirit of respect for national values, patriotism based on humanism and high spiritual ideas, strengthening immunity against alien ideas and ideologies, restoring the vast, priceless spiritual and cultural heritage created by our ancestors on for many centuries. In particular, the issues of spirituality and enlightenment in our society are of paramount importance, the need for effective work in the field of national education of young people, who are a sane, spiritually developed person, is analyzed by examples to understand the content, essence of these concepts, their true purpose in life.*

**Kalit so'zlar:** Ta'lim tarbiya, hamkorlik texnologiyasi, mahalliy mentalitet

**Ключевые слова:** образование, технология сотрудничества, местный менталитет.

**Key words:** Education, cooperation technology, local mentality.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin tarixan qisqa vaqt ichida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda juda katta yutuqlar qo'lga kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoniga muvofiq, «Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, sohadagi mavjud meyoriy-huquqiy negizini takomillashtirish, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro nufuzini yanada oshirish, oliy ta'limda ma'naviy-axloqiy mazmuni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish» [5] bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, o'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorligining bugungi ta'lim-tarbiya rivojlanishidagi siyosiy, tarixiy o'rni va ahamiyatini o'rganish zaruriy ehtiyojdir.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Ayniqsa, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga

birinchi darajali ahamiyat berilib, milliy tarbiya sohasida sog'lom fikrli, ma'naviy barkamol inson bo'lgan yoshlarga ushbu tushunchalarning mazmuni, mohiyati, ularning hayotdagi asl maqsadini anglatish borasida jiddiy ishlashimizni davrning o'zi taqozo etmoqda. Chunki «mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq» [17; 168.]. Bu esa har bir insonning ma'naviy dunyosi va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Shu maqsadda ma'naviyat va tafakkur tushunchalariga «Pedagogika fanidan izohli lug'at»da quyidagicha ta'rif beriladi. «Ma'naviyat – (arabcha – ma'nolar majmui) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. U kishining ichki, ruhiy, axloqiy qiyofasi tushunchasi bo'lib, ma'lum bir axloq me'yorlari, maromlari asosida yashash tarzi, umuman hayotdir» [108; 114.]. Tafakkur tushunchasi esa insoniyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq jarayondir. Chunki, hayotdagi barcha voqea va hodisalar insonning ijtimoiy ongida aks etadi. «Tafakkur – insoniyatning necha ming yillik tarixiy rivojlanishi davrida ijodkorlik jarayoni bilan bog'liq holda hosil qilinib borilgan va erishilgan oliy va aqliy ne'matdir» [108; 177.]. Tafakkur inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotda qo'llashdir, deyilsa, Psixolog E.G'oziyev shunday ifodalaydi: «Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy-sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir» [107]. Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqatli yo'lni bosib o'tgan. Ajdodlarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan qadimiy madaniyati tarkibidan ta'lim-tarbiyaga oid merosi ham alohida o'rin olgan.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Respublikamiz olimlari M.Ochilov, M.Inomova, M.Toxtaxodjayeva, K.Mahkamov, Y.Mahmudov, X.Xudoyqulov, B.Qodirov, O.Musurmonova, O.Hayitov, A.Kenjaboyev, M.Bozorova, E.G'oziyev, B.Shoumarov, A. Munavvarov, V. Karimova, M. Mirhosilov, N. Sog'inovlarning ilmiy ijodiy ishlarida ma'naviy tafakkurni tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorlik texnologiyalarining uzviyligi tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur muammoning turli jihatlarini MDH olimlari A.Burov, M.Verba, YE.Kvyatkovskiy, B.Lixachev, G.Bolxovskiy, N.Vetlugina, O.Bogdanova, K.Gavrilovets O.Ivashenkolarining tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan. Shuningdek, ma'naviy tafakkurni tarbiyalash muammolarini xorijlik E.Eisner, R.Smit, R.Shusterman, P.Parrish, H.Fairbank, M.Holzer, A.Gulla va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida ko'rish mumkin.

O'quvchi yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorlik texnologiyalari qisman pedagog-olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsada, bu boradagi tadqiqotlarni umumlashtirish, takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. O'quvchi yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda maktab, oila va mahalla hamkorlik texnologiyalarining mahalliy mentalitet asosida o'rganilishi pedagogika nazariyasini yanada boyitadi.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Bolaning oilada, eng avvalo, ma'naviy-ahloqiy tarbiyasiga e'tibor beriladi. Shunday ekan, «Nima yomon, nima yaxshi?», «Odobli bo'l, sabrsizlik qilma», «Har bir fikrlaringni o'ylab gapir», degan so'zlar bilan ularning ma'naviy tafakkurini tarbiyalab borishga barcha imkoniyatlarni qaratamiz.

Bola jamiyatga qanchalik chuqurroq kirib borar ekan, uning ijtimoiylashuvi shunchalik tezlashish bilan birga, u shaxs sifatida ham shakllanib boradi, uni baholash esa ko'p qirrali. Umumta'lim maktab o'quvchilarining ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda shaxsga baho berishdagi asosiy mezon uning o'qishidagi va jamoat ishidagi faolligi bilan bog'liq bo'lib, uning ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini gohida ikkinchi darajali masala sifatida qaraladi.

Oilaviy tarbiyaning ta'sirchanligi va samaradorligi ko'p jihatdan oilada qaror topgan er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xarakteriga, ma'naviy-axloqiy muhitiga bog'liq. O'quvchida ma'naviy tafakkurni tarbiyalashda oiladagi ma'naviy-axloqiy muhit muhim rol o'ynaydi. Ma'naviyat bo'lmasa, mustaqillikni mustahkamlab bo'lmaydi, chunki u ijtimoiy taraqqiyot poydevori. Ma'naviy jihatdan qudratli davlat iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lib ketishi mumkin. Ma'naviy boy xalq o'z mamlakati oldida turgan har qanday vazifalarni to'g'ri anglab yetadi va davlatning ma'naviy salohiyati oshadi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy tafakkurini tarbiyalash, ularni shakllantirish, ta'lim-

tarbiyaning yo'lga qo'yilganligi, kishilarning milliy jihatlari, yashash va mehnat qilish sharoitlari, turmush tarzi, diniy e'tiqodlari va milliy qadriyatlar katta ta'sir ko'rsatadi. Natijada, ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos tomonlari, ya'ni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash usullari kelib chiqadi. Bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizning tarkibiy qismi bo'lib kelgan. O'quvchi yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda ma'naviy-ahloqiy tarbiya ichki omil hisoblanadi. Ota-onalarning farzandlariga qoldiradigan eng katta merosi ularga o'rgatadigan, milliy qadriyatlarga asoslangan axloq va odobdir.

O'quvchi yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda, milliy-madaniy meros va qadriyatlardan foydalanish asosida har bir shaxsning ma'naviyatiga o'ziga xos milliy yo'nalish berishga harakat qilish lozim. Shunday ekan, har bir millat, uning ma'naviy kamoloti bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaning o'ziga xos milliy usullari, mazmuni va yo'nalishlari ham takomillashib boraveradi.

Bu borada milliy qadriyatlarimiz asosida xalq pedagogikasi an'analari, udumlar va qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda xalqimiz yashab turgan muhit, yashash tarzi, tarixiy an'analari, urf-odatlar, rasmlari va udumlari katta ta'sir etib, milliy ahloqiy tarbiya zaminida rivojlanib boradi, ijtimoiy hodisa sifatida davr taqozosi bilan o'zgarib, sayqallanib jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib qolaveradi. O'zbek xalqining milliy qadriyatlarini, udum va urf-odatlarini minglab yillar davomida o't-olovida toblanib, mashaqqatli turmush sinovlaridan o'tib, xalqimizning amaliy qoidasi – hayot qonuni bo'lib, ular bora-bora xalqimiz ma'naviy ongiga, qoniga, jonjoniga singib, mutlaq udum, urf-odatlar va an'analari darajasiga ko'tarilgan. Bunday qadriyatlarni hech qachon zo'rlik bilan, buyruq va farmon bilan yo'q qilib bo'lmasligini hayot allaqachon isbotlagan. Shuning uchun o'quvchi yoshlar ma'naviy tafakkurida tarbiyaning birinchi kunlaridan boshlab singdirish, uni doimiy hayot tajribasi bilan uyg'unlantirgan holda olib borish lozim.

#### XULOSA

Yuqoridagi ilmiy-nazariy fikrlarga asoslangan holda shunday xulosa qilishimiz mumkin:

O'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda har bir o'quvchi ongida ma'naviy tafakkuridagi mustaqil fikrlash orqali o'z intilishlarini yurt obodligi va taraqqiyotiga qo'shgan ijobiy jarayonlar bilan o'zini to'g'ri yo'lda ekanligini anglatishi hissini uyg'otish zarur.

Har bir yosh avlod o'z oilasi, nasl-nasabi bilan faxrlanishi, vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilganligiga qarab ma'naviy yetukligini namoyon etish uchun qo'lidan kelgan barcha imkoniyatlarini safarbar etishi kerak. Eng avvalo, oilaviy an'analarni saqlab qolgan holda milliy qadriyatlarga sadoqatli ma'naviy tafakkurni shakllantirish talab etiladi.

Bola tarbiyasida o'qituvchi va ota-onalar bobolarimiz yaratgan ma'naviy meros va ajdodlar tomonidan bizga yetib kelgan urf-odat, ma'naviy-ahloqiy fazilatlarini o'quvchilarga o'rgatish bilan birga unga sadoqat hislarini o'rgatib borishi lozim.

Barcha shiorlar, bobolarimizning hikmatli so'zlari, xalq maqollari o'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda shunchalik yaxshi singdirilishi lozimki, ertangi fuqarolarimiz ma'naviy yetuk bo'lishi bilan birga ijtimoiy hayot va jamiyat bunyodkorligida ana shu g'oyalarni qalban his etishsin.

Mazkur dolzarb masalalarni hal etishda oila, bog'cha, maktab, ta'lim muassasalari, mahalla va boshqa jamoat tashkilotlari hamkorlikda va birgalikda, ijodiy uyushgan holda ish yuritishi, hamda ommaviy axborot vositalari, oliy o'quv yurtlari, butun jamoatchilik bilan hamjihatlikda harakat qilishi lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, "Xalq so'zi" gazetasi, 2019., 9 oktabr, 09(7439)-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston NMIU, 2017.-592 b
3. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.: O'zbekiston Respublikasi FA «Fan» nashriyoti, 2006.-114 b.